

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**H.Xakimov, B.A.Nabiyev**

Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi ..... 217

**X.Raxmatova**

Abu Said Abulxayrning "Risolai havroiyya" asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida ..... 225

**B.Iminov**

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi "Dehqon" jurnalining tarixi ..... 229

**O'.Ahmedova**

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'naviy tarbiyaning ta'siri ..... 233

**B.Xasanov**

Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi ..... 236

**B.Yalgashev**

Samarqand vohasida ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari ..... 240

**J.Yusubov**

Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o'ziga xos jihatlari ..... 245

**D.Sagdullaeva**

Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 248

**A.Tojaliyev**

Oliy ta'lim-yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti ..... 254

**E.Zoyirov**

Ya'qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari ..... 258

**U.Azimov**

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili ..... 264

**A.Abdumalikov**

Jamiyatda uzliksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli ..... 267

**I.Rizayev**

Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar ..... 272

**R.Mardonov**

Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot ..... 279

**F.Yuldashev**

Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi ..... 283

**F.Usmonov**

Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari ..... 282

**H.Muhamadiyev**

Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida ..... 293

## SIYOSAT

**D.Sharipov**

Tinchlikni ta'minlashning innovatsion omillari ..... 298

**M.Habibullaev**

Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma'naviy – ma'rifiy islohotlarning dolzarbligi ..... 302

**M.G'anyeva**

Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni ..... 305

**O.Boboqulov**

Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O'zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari ..... 309

**J.Sultonov**

Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish ..... 311

**OLY TA'LIM-YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING MUHIM SHARTI**  
**ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ СОЗДАНИЯ НОВОГО**  
**УЗБЕКИСТАНА**

**HIGHER EDUCATION IS AN IMPORTANT CONDITION FOR ESTABLISHING A NEW**  
**UZBEKISTAN**

**Tojaliyev Abdukosim Abdulxakimovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Tojaliyev Abdukosim Abdulxakimovich

– Farg'ona davlat universiteti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) katta o'qituvchi

**Annotatsiya**

*Maqolada oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari rivojlanishning yangi bosqichi nuqtayi nazaridan muhokama qilinadi. Muallif, mamlakatning innovatsion rivojlanishi nuqtai nazaridan oliy ta'limni isloh qilish va jamiyat barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omili sifatida tadqiq etgan. Ushbu maqolada zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion usullarni joriy qilish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan.*

*Muallif yangi sharoitda jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida oliy ta'limning rivojlanish muammolarini o'rganib chiqdi va e'tiborini mamlakatda islohotlar jarayonlari bilan oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning zamonaviy vazifalarini birlashtirishga qaratgan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются актуальные вопросы дальнейшего развития системы высшего образования в условиях нового этапа развития. Автор исследует проблемы реформирования высшего образования в контексте инновационного развития страны и как важного фактора обеспечения устойчивого развития общества. В работе рассмотрены связь данного вопроса с внедрением инновационных методов в систему подготовки современных кадров.*

*Автор исследовал проблемы развития высшей школы в новых условиях как важного фактора в устойчивом развитии общества. Сделана попытка связать современные задачи совершенствования системы высшей школы с реформационными процессами в стране.*

**Abstract**

*In article pressing questions of the further development of system of higher education in the conditions of a new stage of development are considered. The author investigates problems of reforming of higher education in a context of innovative development of the country and as important factor of maintenance of a sustainable development of a society. In work are considered communication of this point in question with introduction of innovative methods in system of preparation of modern shots.*

*The author investigated problems of development of the higher school in new conditions as important factor in a society sustainable development. Attempt to connect modern problems of perfection of system of the higher school with реформационным processes in the country is made.*

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, islohot, universitet, yoshlar, innovatsiya, bozor iqtisodiyoti, jamiyat, barqaror rivojlanish.

**Ключевые слова:** высшее образование, реформа, университет, молодежь, инновация, рыночная экономика, общество, устойчивое развитие

**Key words:** higher education, reform, university, youth, an innovation, market economy, a society, a sustainable development.

**KIRISH**

Mamlakatimiz Yangi O'zbekiston barpo etish yo'lida o'zining yangi rivojlanish bosqichiga kirdi va bu uzoq davom etadigan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ko'zda tutadigan jarayondir. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri boshqaruv madaniyatining yuksalishi va jamoatchilik ongining muttasil oshganligi bilan xarakterlanadi. Amalga oshirilayotgan innovatsiyalar, strategik vazifalarning jamiyatdagi ijrosi natijasida hozirgi davrda vujudga kelayotgan ijtimoiy qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Yangi taraqqiyot davrida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan barqarorlikka erishildi va buning natijasida rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin egallash lozimligi asosiy maqsad sifatida belgilandi. "Ta'lim sifatini oshirish-Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir".[1] Oliy ta'lim jamiyat barqarorligini va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, birinchidan talaba yoshlarning ma'naviy va axloqiy kamolotiga ustuvor ta'sirga egaligi, ikkinchidan, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida, ya'ni uning barqaror

## FALSAFA

rivojlanishi yuqori malakali kadrlar korpusi faoliyatiga bog'liqligi bilan muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, bevosita islohotlar natijasida erishiladigan, ko'zlangan ijtimoiy-iqtisodiy marralarni qo'lga kiritish, barkamol shaxs kamolotini ta'minlash, yoshlarni atrofda sodir bo'layotgan salbiy jarayonlardan asrash kabi masalalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu muammolar qatorida yer yuzida iqlimning tez o'zgarishi, suv va oziq-ovqat tanqisligi, yoshlarga salbiy ta'sir etadigan ommaviy madaniyat, salbiy axborot xurujidan asray oladigan immunitetni shakllantirish, yuksaltirish zaruriyati asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa bu vazifalar yechimi jahonda kechayotgan global xarakterga ega bo'lgan o'zgarishlar, rivojlanish tendensiyalariga, ya'ni bozor iqtisodiyoti munosabatlari fundamentalizmining chuqurlashuvi natijasida faqat foyda olish uchun intilib yashash istagining kuchayishi jarayoniga bevosita bog'liqligidir. Insoniyat "rivojlanish" orqasidan quvlab, uni ta'minlash uchun doimiy harakat qiladi. Lekin bu harakat tabiiy resurslarning kamayishiga sabab bo'lib, ekologik bo'hronlarga olib kelayotganligini tan olmaydi. Shuningdek, har bir odamni shaxs sifatida qadriyat, ma'naviy madaniyat vakili timsoli ekanligini inobatga olmaydi, ba'zi hollarda uning ijtimoiy maqsadlari mazmunini inkor etadi. Ushbu jarayonning yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ta'limning har bir avlod ma'naviy yuksalishini ta'minlash funksiyasini bajarishidan ko'ra, bozor iqtisodiyoti talablarini bajaruvchi subyektga aylanishiga yordam beruvchi mexanizm sifatida qarash holatlari mavjud. Shu munosabat bilan qayd etish lozimki, hozirgi davrda ijtimoiy taraqqiyotning munosib yo'llarini izlab topishga harakat qilinmoqda va bu jarayonda jamiyatning ushbu taraqqiyot mexanizmlariga moslashuvchanligini ta'minlash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday munosabatlar tarkibida, ya'ni mavjud nazariy fikrlar, ilmiy asoslangan g'oyalar qatorida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash konsepsiyasi alohida o'rin egallaydi. Ushbu konsepsiya faylasuflar va boshqa fanlar vakillari tomonidan insoniyatni hozirgi davrdagi mavjud bo'hronlar va krizislardan olib chiqadigan, uni muntazam rivojlanish imkoniyatini bevosita ta'minlovchi yagona ilmiy konsepsiya sifatida ilgari surilmoqda. Global rivojlanishning bir qismi bo'lgan mamlakatimiz, taraqqiyotning yangi bosqichiga kirib, yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olish uchun harakat qilayotib, har bir shaxsning ushbu jarayonda faol ishtirokini ta'minlash mexanizmini topishga harakat qilyapti va bu jarayonda texnik, texnologik, iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini izlashga harakat qilmoqda. Bunday sharoitda birinchi navbatda shaxsning islohotlarga munosabatini ta'minlash, ularning taraqqiyot jarayonini ta'minlashga qaratilgan dunyoqarashini shakllantirish lozim. Bunday sharoitda sodir bo'layotgan jarayonlarga butun jamiyat a'zolari, uning tarkibida mavjud bo'lgan alohida institutlarning, ayniqsa yoshlar va bo'lajak mutaxassislarining adaptatsiyasini ta'minlash zaruriyati vujudga keladi. Bunday vazifalar yechimida oliy ta'lim muhim ahamiyatga egadir, chunki oliy ta'lim jarayoni ijtimoiy hayotga kirib kelayotgan yangi kadrlar korpusini tarbiyalaydi, mutaxassis sifatida tayyorlaydi va uning jamiyatga ijtimoiylashuvi asoslarini shakllantiradi. Oliy ta'lim bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikmalarini yaratadi, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ijobiy munosabatini yuksaltiradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mavzu tarkibiga kiruvchi muammolar falsafiy jihatlarini tadqiqotining dolzarbligi oliy ta'limning alohida ijtimoiy institut ekanligi va yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimida, barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi muhim faktor rolini egallashi, uning jamiyatda sodir bo'layotgan reformatsion o'zgarishlarga moslashuvchanlik imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ta'kidlash lozimki, faqat ta'lim, uning muhim bo'lagi hisoblangan oliy ta'lim jamiyatning turli rivojlanish bosqichlariga shaxsning moslashuvchanlik imkoniyatlarini ta'minlaydi, yangi avlodni o'qitish va tarbiyalash natijasida yoshlarning, bo'lajak mutaxassislarining dunyoqarashini, madaniyatini, kasbiy bilimlarini shakllantiradi va ijtimoiy rivojlanishga oid yo'nalishlar vujudga keladi. Ushbu omillar oliy ta'limni yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatning barqaror rivojlanishni ta'minlovchi faktor sifatida ilmiy falsafiy jihatdan chuqur o'rganishni, tadqiq etishni taqozo qiladi. O'zbekistondagi yangi taraqqiyot bosqichining insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishidagi tarkibiy qism ekanligidan kelib chiqib va jamiyat rivojiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan jarayonlarni hisobga olib, oliy ta'limning ushbu jarayonlardagi rolini tahlil qilish amaliy ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham faylasuf, jamiyatshunos olimlar oliy ta'limning hozirgi davrdagi mazmuni, maqsad va vazifalari, jamiyatning innovatsion rivojlanishidagi o'rnini turli aspektlarda o'rganishmoqda. Ta'kidlash lozimki, jamiyatshunos tadqiqotchilar oliy ta'limning jamiyatni barqaror taraqqiyoti modeliga o'tishidagi rolga alohida o'rin berishmoqda va shu bilan birgalikda, oliy ta'limning yangi modelini

barqaror rivojlanishni ta'minlashga ko'mak beradigan asosiy omil sifatida tasvirlashmoqda. Shuni qayd etish lozimki, mamlakatimizda oliy ta'lim rivoji, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi mohiyatiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari mavjud bo'lsa-da, oliy ta'limning jamiyat yangi rivojlanish bosqichi davrida barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi, kafolatlovchi faktor ekanligiga bag'ishlangan tizimli suratdagi falsafiy tadqiqotlar olib borilmagan. Shu munosabat bilan qayd etish lozimki, hozirgi davrda ta'lim falsafasining metodologik funksiyalarini tadqiq etishda oliy ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omil ekanligiga alohida e'tibor berish zarur. Shuningdek, oliy ta'limning uzluksiz rivojlanib borayotgan mazmuniga jamiyat subyektlarining moslashuvchanlik jarayonini o'rganish ham dolzarb muammo hisoblanadi. Ayniqsa, jamiyatda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar mazmuni nuqtai nazaridan, ya'ni uning ushbu jarayonlarga moslasha olishi imkoniyatlari va oliy ta'limning ontologik xususiyatlarini mustaqil o'rganish zaruriyati mavjuddir. Shuning uchun ham barqaror taraqqiyotning jamiyat rivojlanishida ustuvor ahamiyatga egaligi, jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarning unga nisbatan moslashishini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy falsafiy muammolardan biridir. O'zbekiston sharoitida jamiyatning barqaror taraqqiyotida oliy ta'lim tizimi rivojlanishining ontologik, akseologik xususiyatlarini aniqlash ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

### MUHOKAMA VA NATIJA

Ta'kidlash lozimki, yangi rivojlanish bosqichida oliy ta'limning ontologik xususiyatlarini aniqlash, ya'ni uning bo'lajak mutaxassislariga mavjud milliy mentalitetda, yoshlar dunyoqarashida va madaniyatidagi o'zgarishlardan samarali foydalangan holda ularning moslashish imkoniyatlarini sodir bo'layotgan global muammolar nuqtai nazaridan ilmiy asoslash zarurdir. Yangi davrda jamiyatning barqaror rivojlanishi birinchi navbatda ijtimoiy munosabatlarning takomillashtirilishi va jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yaqin kelajakdagi taraqqiyotiga bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida jamiyatning barqaror rivoji nafaqat innovatsion asosdagi iqtisodiy rivojlanishni, ijtimoiy hayotdagi, ma'naviy madaniyatdagi, tashqi iqtisodiy, madaniy aloqalardagi tubdan o'zgarishlarga xos bo'lgan ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida uning oliy ta'lim bilan o'zaro munosabatlarida dialektik ijtimoiy hamkorlik mavjuddir va shuning uchun ham oliy ta'lim jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarning sababchisi va natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan, qayd etish lozimki, umumiy jihatdan oliy ta'lim jamiyatni tabiiy va ijtimoiy o'zgarishlarga tayyorlaydi, moslashtiradi. Oliy ta'limning moslashtiruvchi tizim sifatida inson, davlat va jamiyat munosabatlariga nisbatan asosiy maqsadi, o'zaro chambarchas bog'liqdir. Oliy ta'limning muhim qadriyat ekanligini anglash, jamiyatda barqaror taraqqiyotga moslashuvchanlik sharoitlari shakllanishida va uning barcha ilmiy, tarbiyaviy imkoniyatlaridan ushbu jarayonda samarali foydalanishda muhim omil o'rnini bajaradi. O'zgarib borayotgan O'zbekiston jamiyati rivojlanish bosqichida tizimli sur'atda yangi qadriyatlarni izlamoqda. Bunday sharoitda mavzu tadqiqotiga falsafiy yondashuvning ahamiyati kuchayadi, chunki faqat falsafiy mushohada jamiyat tomonidan ilgari surilayotgan murakkabliklarga ilmiy asoslangan javob izlaydi. Rivojlangan davlatlardagi mavjud bo'lgan jamiyatga nisbatan qiyosiy xulosa qilinsa, mamlakatdagi tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ya'ni jamiyatni barqarorlashtirish konsepsiyasini faqat ilmiy dialektik loyiha asosida amalga oshirish mumkinligi ma'lum bo'ladi. Hozirgi zamon ta'lim jarayonining jamiyatni moslashuvchanligini ta'minlashidagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, oliy ta'lim jarayoni amaliyotda alohida qadriyat sifatida namoyon bo'lyapti. Takomillashtirilayotgan oliy ta'lim tizimining qadriyat sifatida ahamiyatining kuchayishi bevosita jamiyatning yangi sivilizatsiya, ya'ni barqaror rivojlana oladigan jamiyat sari yo'l topishga urinishi, uning ustuvor maqsadni amalga oshirishga qaratilgan qat'iy harakatining ko'rinishidir. Barqaror jamiyat sari dadil harakat davomida, oliy ta'lim jarayonining qadriyat sifatida yuksalishi, orqada qolayotgan emas, balki undan ilgarib borayotgan, barqaror rivojlanayotgan jamiyat manfaatlarini va so'rovlariga mos bo'lgan, uning ijtimoiy-iqtisodiy talablarini o'ziga singdira olgan progressiv tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi faktorlardan biri sifatida, uning konseptual yechimlarini topa oladigan omillardan biridir, chunki bu maqsad yangilanayotgan jamiyatga kirib kelayotgan kadrlarning yangi korpusini tarbiyalash, zamonaviy talablar darajasida amaliyotga tayyorlash va oliy ta'lim tizimida yangi dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgandir. Oliy ta'limning qadriyat sifatida shakllanishi va yuksalib borishi jamiyatning jadal va innovatsion asosda rivojlanishiga mos bo'lib, uning asosiy maqsadi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning ilmiy yechimini topish va O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashiga,

yoshlar axloqiy, siyosiy, vatanparvarlik madaniyatining yuksalishiga va shu bilan birgalikda jamiyat taraqqiyotini xavfsiz, ekologik jihatdan barqaror bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishdir.

### XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, oliy ta'limning ijtimoiy ahamiyati, faqat pragmatik, ya'ni o'tgan davrlarga xos bo'lgan bilimlarni bo'lajak mutaxassislariga o'rgatish, ularda kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan chegaralanmasdan, shu bilan birgalikda hozirgi zamon mutaxassislariga xos bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni, jumladan, yuqori intellekt, dunyoqarash, javobgarlik hissi, faollik, ijodiy faoliyat olib borish kabi jihatlarni shakllantirishga va pirovard natijada bu jarayon jadal rivojlanayotgan ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga xizmat qiladi. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi faylasuflar, jamiyatshunoslar, ekolog olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijasi bo'lib, jamiyatda ekologik bo'hronlar sodir bo'lmasligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning tizimli yechimini topishga qaratilgandir. Barqaror taraqqiy etgan jamiyat, bu ijtimoiy munosabatlarni hamma jabhalarda takomillashtirishga, jumladan, iqtisodiy, siyosiy boshqaruv, madaniyat, ta'lim, ma'naviy va boshqa sohalar takomiliga qaratilgan tizimdir, shu bilan birgalikda inson va jamiyat munosabatlarining o'zaro uyg'unligini ham taqozo qiladi. Bunday sharoitda barqaror taraqqiyot konsepsiyasi inson manfaatlari va ijtimoiy yo'naltirilganligi bilan kelajakda ijtimoiy, madaniy xilma-xillikni saqlaydi, ularni tizimli takomillashtirishga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 "On approval of the development strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026" National database of legal documents, 29.01.2022, No. 06/22/60/0082, 18.03.2022, No. 06/22/89/0227)
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, "O'zbekiston", 2017.-B. (Mirziyoyev Sh.M. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rules of every leader's activity. Tashkent, "Uzbekistan", 2017.-B.)
3. Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2018 yil 8 dekabr. (An educated generation is a guarantee of a great future, an entrepreneurial nation is a guarantee of a prosperous life, and friendly cooperation is a guarantee of development. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the ceremony dedicated to the 26th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. People's word, December 8, 2018.)
4. Xakimov N.X. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni samarali ta'minlashda malakali kadrlarning roli. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish: xorijiy tajriba, tendensiyalar va istiqbollar ilmiy amaliy konferensiya tezislari to'plami 12 oktyabr 2018., Toshkent, 323-325 betlar. (Khakimov N.Kh. The role of qualified personnel in effective provision of innovative development of the economy. Innovative development of the economy of the Republic of Uzbekistan: foreign experience, trends and perspectives, a collection of scientific and practical conference abstracts, October 12, 2018, Tashkent, pp. 323-325.)
5. Tojaliev, A. A. (2021). Higher education system-a guarantee of sustainable development of society. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 1021-1025.
6. Tojaliyev, A. A. (2020, December). The Role Of Innovative Activities Of Highly Qualified Personnel In The Strategic Development Of The Regions. In *International scientific and current research conferences* (pp. 154-156).
11. Tojaliyev, A. A. (2019). The necessity of using innovations in new developing process higher education. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4), 132-136.
7. Tojaliyev, A. A. Perfection of bachelor degree students training in the conditions of innovative development. *Published European Journal of Business Social Sciences (EJBSS)*, 7, 133-141.
8. Tojaliyev, A., & Tojaliyeva, G. (2021). Innovative directions in the field of pedagogical education. *Теория и практика современной науки*, (5), 22-25.
9. Abdurakhmanov, K. K., Khakimov, N. K., Ruzieva, R. H., Makhmutkhodjaeva, I.S., & Tozhaliev, A. A. (2019). Higher education as a significant factor of Uzbekistan's sustainable development.
10. Аликулова, М. М., & Тожалиев, А. А. (2019). Вояга етмаган болаларда салбий хулқнинг пайдо бўлиш хусусиятлари. *Современное образование (Узбекистан)*, (8 (81)), 37-42.